

**ZAMAXSHARIYNING “MUFASSAL” ASARIDAGI MORFOLOGIK
BIRLIKLAR TIZIMI VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI
TALQINI**

Eshboyev Shohzod Normamatovich

*Samarqand davlat chet tillar instituti Lingvistika
(arab tili) yoʻnalishi 2-bosqich magistranti*

E-mail: ibrohimeshboyev0877gmail.com

Telefon raqami: +998 (99) 336 66 69

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zamaxshariyning “Mufassal” asaridagi morfologik birliklar — feʼl, ism, harf, masdar, ismi foʻil, ismi mafʼul, nisba, zarf, taajjub, koʻplik shakllari — grammatik, semantik va sintaktik xususiyatlari asosida izchil tahlil qilinadi. Asardagi vaznlar tizimi, eʼrob, jins-son-nisbat birliklarining tahlili zamonaviy funksional grammatika, morfologik semantika va leksikal derivatsiya yondashuvlari bilan qiyosiy tarzda oʻrganiladi. Maqola arab tili morfologiyasining klassik va zamonaviy yondashuvlar oʻrtasidagi uzviylikni ochib beradi.

Kalit soʻzlar: Zamaxshariy, “Mufassal”, morfologik birlik, vazn, nisba, eʼrob, zamonaviy tilshunoslik, semantik yuklama.

Аннотация. В данной статье проводится системный анализ морфологических единиц, представленных в трактате Замахшари «Муфассаль»: глаголов, имён, частиц, форм масдара, действительного и страдательного причастий, форм женского рода, двойственного числа, нисбы и др. Особое внимание уделяется весовым моделям, эърабу и парадигмам согласования. Эти феномены сопоставляются с концепциями современной функциональной грамматики, морфологической семантики и лексической деривации.

Ключевые слова: Замахшари, «Муфассаль», морфология, нисба, весовая модель, современная лингвистика, эъраб.

Annotation. This article offers a systematic analysis of the morphological structures in Zamakhsharī’s “Mufassal”, including verbs, nouns, particles, verbal derivatives (masdar, active and passive participles), gender and number inflections, nisba adjectives, and other nominal forms. The study highlights the theory of root-pattern morphology, grammatical agreement, and case marking (iʼrāb), comparing them with modern approaches such as functional grammar, morphological semantics, and lexical derivation theory.

Key words: Zamakhsharī, “Mufassal”, morphology, nisba, pattern semantics, iʼrāb, functional grammar, lexical derivation.

KIRISH

Zamaxshariy (1075–1144) tomonidan yozilgan “Mufassal” asari arab tilshunosligi tarixida morfologik-sintaktik tahlilning eng muhim manbalaridan biri sifatida eʼtirof etiladi. Ushbu asar oʻz mazmun-mohiyatiga koʻra, arab tilining grammatik tizimini vaznlar, eʼrob, jins, son, nisba, ismlarning derivatsion shakllari, taajjub va zarf birliklari orqali chuqur nazariy asosda yoritgan. “Mufassal”da har bir grammatik birlik oʻz vazifasi, shakli paradigmasi va sintaktik kontekstdagi roli

asosida baholangan bo‘lib, u o‘z davrining eng tizimli grammatika manbasi sifatida qadrlanadi.

Bugungi zamonaviy tilshunoslikda, xususan, funksional grammatika va leksikal morfologiyada morfologik birliklarning semantik yuklamasi, shakl–ma’no–funksiya o‘zaro bog‘liqligi, derivatsion modellarning paradigmatic asosda tashkil topishi muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, “Mufassal”dagi morfologik yondashuvlarni zamonaviy lingvistik nazariyalar bilan qiyosiy o‘rganish arab tilshunosligining tarixiy va amaliy manzara doirasini kengaytiradi.

Mazkur maqola “Mufassal”dagi morfologik birliklarni semantik, sintaktik va paradigmatic asosda tahlil qilib, ularning zamonaviy tilshunoslik doirasidagi ilmiy talqinlarini ochib berishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zamaxshariyning “Mufassal” asari o‘rta asr arab tilshunosligi taraqqiyotida nazariy va didaktik jihatdan eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asar arab morfologiyasi sohasida o‘ziga xos shakl–funksiya uyg‘unligini yaratgan bo‘lib, nahv va sarf ilmlarining integratsiyalashgan talqinini taqdim etgan. Uning asariga ko‘plab grammatiklar sharhlar yozgan. Ulardan eng mashhuri — Ibn Ya‘ishning “Sharh al-Mufassal” asaridir. Ushbu sharhda Zamaxshariy tomonidan ilgari surilgan morfologik va sintaktik qoidalar izchil tahlil etilgan.

G‘arb tilshunoslari orasida “Mufassal” asarining qadri, xususan, leksikal morfologiyadagi ildiz-qolip modeli bilan uyg‘unlik nuqtai nazaridan e’tirof etiladi. Zamaxshariyning vaznlar asosidagi yondashuvi morfemik birliklar va ularning semantik farqlanishi masalalarini ilgari surgan ilk tizimlardan biridir. Bu yondashuv zamonaviy morfologik semantika, derivatsion tahlil va paradigmatic modellarga xos metodologiyalarga yaqinlik kasb etadi.

Metodologik jihatdan maqolada quyidagi yondashuvlar qo‘llanildi:

Tarixiy-taqqoslash metodi. Zamaxshariy yondashuvi Farohidiy, Sibavayh, Ibn Jinniy kabi olimlar yondashuvlari bilan qiyoslandi. Bu yondashuvlar orqali morfologik qoidalarning tarixiy uzviyligi va nazariy bosqichlari aniqlashtirildi.

Strukturaviy-semantik tahlil. Morfologik birliklarning tuzilishi (masalan, ismlar va fe’llarning avzon tizimi, nisba, zarf, ismi fo‘il, ismi maf’ul) va ularning semantik yuklamalari aniqlanib, bu birliklar gapdagi sintaktik vazifalari bilan bog‘landi. Ayniqsa, e’rob, jins-son muvofiqligi, aniqlik darajasi, nisbat bildiruvchi qo‘shimchalar sintaktik kontekstdagi vazifasi nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Zamonaviy lingvistik modellar bilan taqqoslash. “Mufassal”da bayon etilgan morfologik qoidalar zamonaviy funksional grammatika, morfologik semantika, valensiya lingvistika va kognitiv tilshunoslik asosida baholandi. Shu jumladan, root-

pattern modeli, adjectival derivation, semantic load of patterns kabi tushunchalar bilan o‘zaro bog‘liq jihatlar yoritildi.

Amaliy misollar orqali izohlash. Arabcha grammatik misollar, sintaktik qurilmalar va ularning o‘zbek tilidagi muqobillari keltirilib, qoidalar real til kontekstida ochib berildi. Misollar tahliliga asoslanib Zamaxshariyning har bir formulaviy bayoni va uni tushuntirishdagi mantiqiy qat’iylik yoritildi.

Bu metodlar orqali Zamaxshariy yondashuvi nafaqat o‘z davrining, balki zamonaviy tilshunoslikning ham nazariy asoslari bilan qiyosiy ravishda tahlil qilindi. U “Mufassal” asarida grammatik birliklarning shakliy, semantik va sintaktik ko‘rinishini mantiqan birlashtirgan bo‘lib, bu jihatlari hozirgi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos vazifasini o‘taydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zamaxshariyning “Mufassal” asari nafaqat o‘z davrining eng yirik nahviy manbalaridan biri sifatida tanilgan, balki arab tilining morfologik tizimini nazariy asosda yoritgan asarlardan ham biridir. Bu asarda muallif zamonasining eng ilg‘or grammatik yondashuvlaridan foydalanib, morfologik birliklarning shakliy, vazniy va semantik tahlilini olib borgan. U Arab tilidagi ism, fe‘l, harf kabi so‘z turkumlarining grammatik xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan bo‘lib, bu jihatlari bugungi zamonaviy tilshunoslikda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Zamaxshariy morfologiyani faqatgina shakl jihatdan emas, balki ma‘no va sintaktik vazifalar nuqtai nazaridan ham o‘rgangan. Masalan, ismlarning jins, son va aniqlik belgilarini ifodalovchi morfemalarning tahlili bugungi morfologik tadqiqotlarda ham alohida o‘rin egallaydi. Uning bu boradagi qarashlari Ferdinand de Sossyur va Noam Xomskiy kabi zamonaviy tilshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan struktur va generativ grammatika nazariyalariga qiyosiy jihatdan yaqin turadi. Ayniqsa, “Mufassal”da keltirilgan vaznlar va fe‘l yasovchi formulalarning tizimli bayoni bugungi korpus lingvistikasi va kompyuter lingvistikasi uchun muhim asos bo‘la oladi.

Zamaxshariy til birliklariga nisbatan paradigmatic va sintagmatik yondashuvlarni ilgari suradi. U ismlarning tushum, ko‘plik va nisbiylik kabilarga oid qo‘shimchalarni nafaqat tasvirlab, balki ularning qanday kontekstda qanday ma‘no berishini ham ko‘rsatadi. Bu jihat zamonaviy tilshunoslikda morfologik semantika deb ataluvchi yo‘nalish bilan bog‘liqdir. Shu bois, “Mufassal” faqat tarixiy grammatika asari sifatida emas, balki funksional tilshunoslik nuqtai nazaridan ham qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy morfologiya fanida mavjud bo‘lgan inflektiv, agglutinatив va izolyativ tillar tasnifi ham Zamaxshariy asaridagi tahlillar bilan qiyoslashga

arzigulikdir. Garchi u bu atamalarni ishlatmagan bo'lsa-da, asardagi tahlillarda arab tilining inflektiv tabiati yaqqol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, fe'llarning ifoda etilishi, ularning zamon, shaxs, son bilan moslashuvi ayni bugungi morfologik tizimlar tavsifiga mos keladi.

Zamaxshariy "Mufassal" asarida morfologik tahlilni faqat shakl darajasida emas, balki uning semantik va sintaktik jihatlarini ham chuqur o'rganadi. Ayniqsa, ismlarning jins, son, aniq-noaniqlik (ma'rifa-nakra), nisbat, nisbiylik va boshqa xususiyatlarini tafsilotli bayon qiladi. Masalan: النَّاجِحُ مَسْرُورٌ („Muvaffaqiyatli kishi xursanddir“) jumlasini tahlil qilsak, النَّاجِحُ – ismi fo'il siyg'asida, muzakkar jinsda, ma'rifa, mufrad(birlik) shaklda bo'lib muftado. مَسْرُورٌ – ismi maf'ul siyg'asida, marfu', muftadaga nisbatan xabar holatida kelgan.

Zamaxshariy bu kabi jumalarni sharhlar ekan, ism turkumlarining morfologik shakllari orqali sintaktik bog'lanishini ochib beradi. Ayniqsa, xabar va muftada o'rtasidagi muvofiqlik (ittifoq) prinsipi bugungi generativ grammatika nazariyasida "grammatik moslashuv" deb ataladi. لَمْ يَكْتُبِ الْوَلَدُ الدَّرْسَ , ya'ni, "Bola darsni yozmadi" jumlasini tahlil qilsak, لَمْ – jazm qiluvchi nafi harfi, fe'lga o'tgan zamon ma'nosini beradi. يَكْتُبُ – fe'l muzore', jazm holatida (sukun bilan tugagan). الْوَلَدُ – marfu' ism bo'lib, fe'lning foilidir. الدَّرْسَ – mansub ism bo'lib, fe'lning maf'ul bihisidir.

Zamaxshariy bu kabi tuzilmalar orqali fe'l va uning atrofidagi tarkibiy birliklar o'rtasidagi munosabatni ochib beradi. Bu jihat bugungi valentlik nazariyasiga to'g'ridan to'g'ri bog'lanadi. كُتِبَ الْكِتَابُ , ya'ni, "Kitob yozildi" jumlasining tahliliga kirishsak, كُتِبَ – moziy fe'li, majhulga mabniy. الْكِتَابُ – marfu' ism bo'lib, noibi foil hisoblanadi.

Zamaxshariy majhullik formulalarini chuqur o'rgangan va bu formulalar keyinchalik transformatsion-generativ grammatika doirasida passiv tuzilmalarni tahlil qilishga asos bo'lgan.

Zamaxshariy fe'l va ism morfologiyasida arab tiliga xos inflektiv tizimning muhim jihatlarini asoslaydi. U "Mufassal"da har bir fe'l vazni orqali vazniy ma'nolarni tushuntiradi. Bu yondashuv bugungi morfologik semantika bilan uzviy bog'lanadi. Masalan: تَفَعَّلَ – bu vazn, ko'pincha takalluf (sun'iylik), muvozanat yoki mehnat bilan amalga oshiriladigan fe'llarni anglatadi. Misol uchun, تَعَلَّمَ fe'li "u ilm oldi (o'rganishga harakat qildi)", degan ma'noni anglatadi. Bu yerda "tafa'ala" vazni harakatning ichki jarayonini, subyektiv intilishni bildiradi. Zamonaviy tilshunoslikda bu hodisa "semantic load of patterns", ya'ni, "vaznlarning semantik roli", deb nomlanadi. Masalan: فَعَّلَ vazni kuchli ta'sirni bildiradi.

Zamaxshariy buni “mazid fe’li” deb ataydi va bu tahlil zamonaviy valensiya lingvistikasida harakatning obyekt bilan grammatik muvofiqligini tushuntirishda muhim o‘rin tutadi.

Zamaxshariyning “Mufassal”dagi morfologik tahlillari zamonaviy struktur grammatikalar, ayniqsa Amerika strukturizmi asoschilari bo‘lmish Blumfeld va Harris tomonidan qo‘llanilgan metodlarga yaqin turadi. Masalan, Zamaxshariy so‘zning korrelyativ shakllarini jadvalsimon bayon qiladi — bu esa bugungi paradigmatik yondashuvga to‘g‘ri keladi.

Zamaxshariy shunday deydi (Mufassal, 45-bob): " وَالْفِعْلُ يُصَرَّفُ عَلَى أَرْمَنَةٍ وَمَعَانٍ " "مُخْتَلَفَةً بِتَغْيِيرِ أَبْنِيَّتِهِ", ya'ni, “Fe’l zamonlar va ma’nolar jihatidan turlicha shakllarda keladi, bu esa uning vaznlarini o‘zgartirish orqali yuz beradi.” Bu fikr zamonaviy fe’l paradigmatlari bilan bir yo‘nalishda talqin qilinadi.

Zamaxshariy “Mufassal”da ismlarning morfologik shakllarini keng doirada tahlil qiladi. U ismlarni jins, son, ma’rifa-nakralik, nisba, taajjub, zarf, ismi fo’il va ismi maf’ul kabi shakllarda bayon etadi. Ayniqsa, “an-nisba” mavzusi o‘ziga xos tarzda ifodalangan bo‘lib, bu bo‘lim zamonaviy affiksial derivatsiya (qo‘shimchalar orqali hosil qilish) nazariyasi bilan bevosita aloqador.

Arab tilida muayyan joy, nisbat yoki mansublikni bildirish uchun nisba qo‘shimchasi (ي) ishlatiladi. Zamaxshariy bunga ko‘plab misollar keltiradi. Masalan, "مَكَّة" (Makka) so‘zining nisbali shakli "مَكِّي" (makkalik)bo‘ladi. Bunda asl ism "مَكَّة" – toponim (joy nomi) bo‘lib, nisba shakli "مَكِّي" – yasalgan sifat (nisbat bildiruvchi) hisoblanadi. Qo‘shimcha "ي" affiksi esa arab tilida morfologik derivatsiyaning asosiy usuli hisoblanadi.

Bu shakllar zamonaviy tilshunoslikda adjectival derivation (sifat yasalishi) doirasiga kiradi. Masalan, ingliz tilidagi Japan → Japanese kabi.

Zamaxshariy ikkilikni izohlashda nahviy va morfologik birliklarni ajratadi, ya’ni morfem shakli va sintaktik roli alohida ko‘rsatiladi. كِتَابَان so‘zi “ikki kitob”, degan ma’noni anglatib, uni quyidagicha tahlil qilish mumkin: كِتَاب – birlik sonda bo‘lib, unga qo‘shilgan “alif” va “nun” harflari raf’ holatdagi ikkilik soni uchundir. Bu struktura inflektiv til sifatidagi arab tilining grammatik ko‘rsatkichlar bilan yasalishining yaqqol ko‘rinishidir.

Zamaxshariy muzakkar va muannas to‘g‘ri ko‘pliklar hamda siniq ko‘plik turlarini tafsilot bilan ko‘rsatadi. Masalan, رَجُلٌ (“kishi”) so‘zining ko‘pligi رِجَالٌ (“kishilar”) siniq ko‘plikka misol bo‘ladi. Shuningdek, مُؤْمِنَةٌ (“mo‘mina”) so‘zining ko‘pligi مُؤْمِنَاتٌ muannas to‘g‘ri ko‘plikka misol bo‘ladi.

Arab tilidagi jam' taksir hodisasi internal morphology (ichki o'zgarish orqali yasash) deb ataluvchi jarayonga misoldir. Bu, ayniqsa, yevropa tillariga qaraganda murakkabroq bo'lib, tizimli morfologik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

XULOSA

Zamaxshariyning "Mufassal" asari arab tili grammatikasi, xususan morfologik tizimining nazariy asoslarini mukammal yoritgan ilmiy manbadir. Asarda morfologik birliklar — fe'l, ism, masdar, ismi fo'il, ismi maf'ul, nisba, zarf va boshqa grammatik strukturalar qat'iy vaznlar tizimi asosida tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv arab tilining inflektiv tabiati, e'rob tizimi, shakl–funksiya–ma'no o'zaro bog'liqligini chuqur ochib beradi.

Zamaxshariy tomonidan ishlab chiqilgan paradigmatic tasniflar, fe'l shakllarining funksional yuklamasi, ismlarning jins, son va aniqlik darajasiga ko'ra tasnifi, harflarning sintaktik roli — bularning barchasi nafaqat klassik arab grammatikasining asosiy ko'rinishlarini belgilaydi, balki zamonaviy tilshunoslikda qo'llanilayotgan morfologik semantika, funksional grammatika, valensiya nazariyasi, affiksial va ichki derivatsiya modellari bilan qiyosiy tadqiq etishga asos beradi.

Ushbu maqolada arab tilining morfologik birliklari arabcha misollar asosida yoritilib, ularning semantik, sintaktik va funksional yondashuvlari taqqoslab tahlil qilindi. Shuningdek, qadimgi grammatik izohlar zamonaviy tilshunoslik metodologiyalari bilan uyg'unlashtirildi.

Xulosa qilib aytganda, Zamaxshariyning "Mufassal" asari nafaqat klassik grammatika namunasi, balki zamonaviy lingvistik tahlil uchun ham boy ilmiy manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zamaxshariy, M. "Al-Mufassal fiy san'at al-i'rob". Bayrut. Dor al-Kutub al-'Ilmiyya. 2001.
2. Ibn Ya'ish. "Sharh al-Mufssal". Bayrut, "Alam al-Kutub". 1985.
3. Sibavayh. "Al-Kitob". Bayrut. Dor al-Kutub al-'Arabiyya. 1988.
4. Al-Farohidiy, X. "Kitob al-Ayn". Qohira. Maktabat al-Xonjiy. 1992.
5. Ibn Jinniy. "Al-Xosois". Qohira. Dor al-Hilol. 1994.
6. Suyutiy, J. "Al-Hoviy fiy ilm an-Nahv". Qohira. Dor al-Fikr. 2000.
7. Ar-Roziy, F. "Lubob an-Nahv". Bayrut. Dor al-Fikr. 2003.
8. Abdulqodir, A. "Nazariyyot al-sarf va-tatavvuruha fiy ad-dirosot al-lug'aviyya". Dimashq. Dor al-Fikr. 2006.
9. Mustafa, A. "At-Taqrif ila an-Nahv al-Arabi". Bayrut. Dor an-Nahda al-Arabiyya. 1998.
10. Ovens, J. "A Linguistic history of arabic". Oksford. Oksford University Press. 2006.
11. Karter, M. G. "Sibavayh". London. Gibb Memorial Trust. 2004.